


Volume II | Issue 3 | March | 2024

Journal of
RESEARCH
and **INNOVATIONS**

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ



ISSN: 2181-4058

Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE-3

ТОШКЕНТ - 2024

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2024-3>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфуза Энуаровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.1 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

NEGMATOVA Dilafuz Xusanovna
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
"Filologiya fakulteti"
magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10842485>

BADIIY SAN'ATLARGA DOIR MATERIALLARNING LEKSIKOGRAFIK MANBALARDAGI TALQINI

ANNOTATSIYA

Mutaxassislik atamalarining katta qismini adabiyot terminlari tashkil qilib, bugungi kunda zamon shiddatiga ko'ra o'zgarishlar ushbu sohada talaygina. Mazkur maqolada badiiy san'atlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildirilgan. Badiiy san'atlarning manbalarda sharhlanishi, adabiyotshunos olimlarning san'atlar haqidagi qarashlari o'zaro taqqoslanadi. Adabiyot darsliklarida badiiy san'atlar haqida qisman nazariy ma'lumotlar tahlillar bilan o'quvchilarga taqdim etilgan. She'riy san'atlar haqida lug'atlarda izohlar tushunilishi qiyin so'zlar orqali berib o'tilgan. Bugungi kunning dolzarb vazifasi o'quvchilar o'qituvchilar, talabalar, umuman olganda, adabiyot mutaxassislari uchun tushunilishi qulay bo'lgan badiiy san'atlarga doir lug'at kerak.

Kalit so'zlar: lug'at, leksikologiya, leksikografiya, so'z, tahlil, san'at, talmeh, tashbih, adabiyot, mutaxassislik atamalari.

ТОЛКОВАНИЕ МАТЕРИАЛОВ ПО ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

АННОТАЦИЯ

Литературные термины составляют большую часть специализированных терминов, и сегодня в этой области происходят изменения в соответствии с интенсивностью времени. Художественные произведения в этой статье и высказывается мнение об их отличительных особенностях. Интерпретация художественных произведений в источниках, взгляды литературоведов на искусство сопоставимы между собой. В учебниках литературы учащимся с анализом представлена частичная теоретическая информация об изобразительном искусстве. Комментарии в словарях о поэтическом искусстве даются через трудные для понимания слова. Актуальной задачей сегодняшнего дня является то, что учащимся нужен словарь по художественным искусствам, удобный для понимания учителями, студентами, специалистами по литературе в целом.

Ключевые слова: словарь, лексикология, лексикография, слово, анализ, искусство, толкование, инициация, литература, специальные термины.

INTERPRETATION OF VISUAL ART MATERIALS IN LEXICOGRAPHICAL SOURCES

ANNOTATION

Literary terms make up most of the specialized terms, and today, changes are taking place in this area in accordance with the intensity of time. The works of art in this article express an opinion about their distinctive features. The interpretation of works of art in the sources, the views of literary critics on art are comparable to each other. In literature textbooks, students are presented with partial theoretical information about the visual arts with analysis. Comments in dictionaries about poetic art are given through words that are difficult to understand. An urgent task today is that students need a dictionary of the arts that is easy for teachers, students, and specialists in literature in general to understand.

Keywords: dictionary, lexicology, lexicography, word, analysis, art, interpretation, initiation, literature, special terms.

Uzoq o'tmishiga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiy san'atlar hamisha ijodkorning diqqat markazida bo'lib kelgan. Har bir ijodkor o'z ijodi davomida bir-biriga o'xshamagan go'zal tashbehlar qo'llashga intilganlar.

Ijod jarayonida o'z tuyg'ularini tasvirlashga e'tibor qaratilgan. She'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan tasvirni hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavalantirilishiga, misralar, baytlarning musiqiyiligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslanadi. Bulardan eng muhimi, she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'liqlik sanaladi.

Adabiyotning barcha turida adib o'zi ifodalayotgan fikrni ta'sirchanligini, tasviriyligini oshirishda turli tasvir vositalaridan foydalangan holda bayon etadi. Buni o'rganuvchi fan badiiy san'atlardir. Matnda ma'noni teranlashtiradigan, ko'p ma'nolilikni yuzaga chiqaradigan, ta'sirchanlik yaratadigan xilma-xil badiiy vositalar bo'ladiki, ularni ko'pincha matn ma'nomazmuniga ko'ra idrok etamiz. Bular – ma'naviy san'atlardir. Matnda xushohanglik yaratadigan, ifodalilikni kuchaytiradigan, tovush mushtarakligi yoki uyqashligini yuzaga chiqaradigan, asosiy holatlarda so'z takroriga asoslangan badiiy san'atlar bo'ladiki, ularni ko'z bilan ko'rib kuzatish va eshitish imkoni bor. Bu – lafziy san'atlardir [1].

Biz mumtoz adabiyotni tushunish, uni teran anglash uchun she'riy san'atlardan xabardor bo'lmog'imiz lozim. Maktab darsliklarida, o'quv rejada, akademik litsey o'quv rejalarida, oliy ta'lim filologiya yo'nalishi talabalariga she'riy san'atlar uchun soatlar ajratilgan.

Har bir o'quvchi, talaba, o'zbek adabiyoti ixlosmandlari she'riyatimizdan bahramand bo'lishi uchun, ijodkorning ichki kechinmasini his etishi, so'zning ma'nosini to'g'ri tushunishi, she'riy san'atlarni o'rganishi, qisman misralarni to'g'ri tahlil eta bilishida lug'atlar lozim.

Lug'at –har bir tilning jozibasini ko'rsatuvchi ko'zgu, shu tilning xazinasini. Undan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish inson bilimni kengaytirish, lug'at boyligini oshirishda hamda fikrni to'g'ri va ravon ifodalashda muhim omildir. O'z tilimizning imkoniyatlarini to'laroq egallashda, savodxonlikni oshirishda va nutq madaniyatini yuksaltirishda ham lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Lug'atshunoslik haqida so'z ketganda, turkiy tilda lug'at tuzgan bobomiz Mahmud Koshg'ariy nomini, albatta, tilga olib o'tamiz. Uning qariyb 1000 yil ilgari yaratgan turkiy tillar tahliliga bag'ishlangan "Devonu lug'atit-turk" asari barcha turkiy xalqlarning betakror boyligi hisoblanadi [2].

Mahmud Koshg'ariyning nomi esa tarix sahifalariga abadiy muhrlandi. Bundan tashqari, tarixda sharq leksikografiyasi haqida so'z borar ekan, uning rivojlantirishga katta hissa qo'shgan yurtdoshlarimiz Alisher Navoiy, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Yoqub Chingiy, Muhammad Rizo Xoksoirlarning ham o'rni beqiyosdir.

Ularning qalamiga mansub “Muqaddimatul adab” (1137y.), “Kitob ul-idrok li lisanul atrak” (1312y.), “Attuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya” (XIII asr), “Kelurnoma”-chig‘atoycha-forscha lug‘at kabi asarlar arab tilida va arab tilshunosligi an‘analarida yozilgan bo‘lsa-da, ularning barchasida qadimgi turkiy til va eski turkiy til lug‘ati o‘z ifodasini topgan. Lekin bu yaratilgan lug‘atlarning hech biri aynan badiiy san‘atlar haqida lug‘at emas.

Bugungi kunda tilshunoslik sohasida yaratilayotgan lug‘atlar salmog‘i adabiyotshunoslikka qaraganda salmoqli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugun izlanuvchi xoh u o‘quvchi xoh o‘qituvchi, xoh talaba bo‘lsin biror badiiy san‘atni tahlil etmoqchi bo‘lsa, aynan bir kitobni mukammal lug‘at sifatida foydalana olmaydi. To‘g‘ri, o‘tmishda Atoulloh Husayniyning “Badoyi us- sanoyi”, Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Ibn Sinoning “She‘r san‘ati”, Dilmurod Quronovning “Adabiyotshunoslik lug‘ati”, A. Asallayevning “Badiiy san‘atlar”, Anvar Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat malohati”, “She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya”, “She‘riy san‘atlarni bilasizmi?” asarlari adabiyotshunoslik uchun mo‘ljallangan lug‘atlardir.

Bundan tashqari, O‘zbek tilining izohli lug‘atida va O‘zbek milliy ensiklopediyasida badiiy san‘atlarga oid atamalar izohlari berib o‘tilgan.

Maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan adabiyot 5–11-sinf adabiyot darsliklarida nazariy ma‘lumot shaklida berilgan she‘riy san‘atlar barcha sinflarda qisqacha sharhlab o‘tilgan. Masalan, *Talmeh* san‘ati haqida so‘z borganda darslikda badiiy asarda biror voqea-hodisa, tarixiy fakt, adabiy yoxud afsonaviy qahramon nomini tilga olish yoki unga ishora qilish tushunilishi aytib o‘tiladi:

*Yoqub bikin ko‘p yig‘idin qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma,*

Baytida *talmeh* san‘ati qo‘llangan [3].

Mumtoz adabiyotimizga doir bir qator asarlarda ham *talmeh* badiiy san‘ati haqida ko‘plab fikrlar aytib o‘tilgan. Atoulloh Husayniyning “Badoyi us – sanoyi” asarida shunday ta‘rif keltiriladi: “*Talmih* kalomda mashhur qissa yo mashhur nodir she‘r yoki mashhur maqolg‘a ishorat etmaktin iborattur” [4], Yoqubjon Is‘hoqovning “So‘z san‘ati so‘zligi” asarida esa bunday xulosa chiqariladi: “Demak, *talmeh* shoirga bir ishora bilan chuqur ma‘noni ifodalash imkonini beruvchi san‘atdir. U istiora, tashbeh kabi san‘atlardan farqli o‘laroq, ijodkorga tarixiy yo afsonaviy voqealarga, masallar, mashhur asarlar va qahramonlar obraziga ishora qilish va shu yo‘l bilan o‘z ijodini mo‘jaz holdakuchaytirish uchun imkoniyat tug‘diradi” [5].

Bundan anglashiladiki, bayt misralarida hatto mashhur qissa, rivoyat, afsonalarga ishora qilish ham *talmeh* san‘atini vujudga keltiradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham *talmeh* san‘ati haqida so‘z yuritar ekan, yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi [6]. Shuni unutmaslik kerakki, adib Layli va Majnun haqida doston yoza turib, asar nomini tilga olsa, u *talmeh* san‘ati bo‘lmaydi. Aksincha, boshqa birov haqida yoki mavzu haqida gapira turib, Layli va Majnun nomini tilga olsa, bu *talmeh* san‘ati bo‘la oladi.

Yoki Tarsi’ san‘ati haqida turli manbalarda berilgan fikrlarni o‘rgansak:

Atoulloh Husayniyning “Badoyi us- sanoyi” asarida “Tarsi’ - aksar arab fusahosining qavlig‘a ko‘ra andin iboratturkim, ikki bo‘lak kalomning, xoh nazm bo‘lsin, xoh nasr, har bo‘lagidag‘i har bir lafz ikkinchi bo‘lagidag‘i anga muqobil lafz bila vaznda teng bo‘lg‘ay va oxirg‘i harfta muvofiq yoki yaqin bo‘lg‘ay. Ba‘zilar yaqinliqni ham shart qilmapturlar. Ammo ajam shuarosi nazdida lafzlarning oxirg‘i harfta muvofiq kelmagi sharttur. Oxirg‘i harftin murod raviy va aning nasrdag‘i o‘xshashlaridur” [7],-deya ta‘rif beradi.

Dilmurod Quronovning “Adabiyotshunoslik lug‘ati” da “TARSE’ (ar. - durni, gavnamni ipga tizmoq) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, baytning birinchi misrasidagi barcha so‘zlarning keyingi misradagi muqobillariga qofiyadosh va vaznda teng bo‘lishidir. Biroq Tarsi’ning asosiy sharti qofiyadoshlik bo‘lib, “Agar qofiya tufayli vaznda ixtilof bo‘lsa nam, zarari yo‘qdir” (A. Husayniy).

Ya'ni, birinchi misradagi so'zlar ikkinchi misradagi muqobillari bilan qofiyadosh bo'lsa, vaznda tenglik buzilgan holda ham, Tarse' san'ati yuzaga kelaveradi. Ayni paytda, misralardagi muqobil so'zlarning ham qofiyadosh, ham vazndosh bo'lishi Tarse'ning mukammal ko'rinishi hisoblanadi",-deb ta'riflanadi.

*Ne xush kelgayki, kelgay nozaninim,
Ne xush bo'lg'ayki, bo'lg'ay hamnishinim.*

Anvar Hojjahmedov o'zining "She'riy san'atlarni bilasizmi?" kitobida bu she'riy san'atga quyidagicha ta'rif beradi: "Tarse'- bayt misralaridagi barcha so'zlarning qofiyadosh bo'lishini shu istiloh bilan ataganlar". Masalan, Navoiyning "Hayrat ul- abror" dostonidagi quyidagi misralarni namuna sifatida keltirish mumkin:

*Noma uchun xoma tarosh ayladim,
Xoma uchun noma xarosh ayladim.*

Lug'atlarda berilgan she'riy san'atlarni bir-biriga taqqoslaganda Atoullloh Husayniyning asaridagi so'zlar bugungi kun o'quvchisining tushunishi uchun ancha murakkab, lekin ilmiy ish olib boruvchilar uchun ajoyib qo'llanma, Dilmurod Quronovning lug'at kitobidagi ta'rif sodda tushunarli, ammo bu kitob umumiy adabiyotshunoslik lug'ati, Anvar Hojjahmedov tomonidan yaratilgan qo'llanma foydalanuvchiga dastlabki ma'lumotni beradi.

Tashbih san'ati haqida izohli lug'atda [Tashbih – o'xshatish: taqqoslash, o'xshashlik, majoz] adabiyotda o'xshatish, majoz. Bunday o'rinlarda tashbih ayni choqda mubolag'a ifrot, mohiyatiga ega degan chalg'ituvchi fikrlar orqali izohlangan [8].

Ibn Sino o'zining "She'r san'ati" nomli kitobida tashbih haqida fikr bildirar ekan, arablar va yunonlarning fikrlarini bir-biriga taqqoslaydi: "Tashbih-yunon she'riyatida tashbih ko'pincha fe'l-atvor va hol-ahvolga qarab qo'llanadi, undan boshqa maqsad ko'zlanmaydi. Arablar esa she'rni ikki maqsadni ko'zlab yozgan: biri kishi ruhiyatiga ta'sir etish, ikkinchisi odamlarni hayratga solishdir".

Atoullloh Husayniy o'z asarida tashbihning vasf jarayonida bir nimani bir nimag'a o'xshatishligini sharhlab, 7 turga bo'linishini ko'rsatib beradi:

- 1) Tashbih-i mutlaq;
- 2) Tashbih-i kinoyat;
- 3) Tashbihi mashrut;
- 4) Tashbih-i tasviyyat;
- 5) Tashbih-i aks;
- 6) Tashbih-i izmor;
- 7) Tashbih-i tafzildan iboratligini izohlaydi [9].

Darslikda tashbeh haqida fikr bildirib, qisqacha o'xshatish san'ati deya izohlaydi. Tashbihda narsa, belgi va harakat kabilar boshqasiga o'xshatilishi, qiyoslash orqali tasvirlanishini, uning yuzaga kelishida to'rt unsur ishtirok etishi mumkinligini ko'rsatib o'tadi:

O'xshamish – tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha (yuz).

O'xshatilmish – tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha (gul).

Asos – nimaga ko'ra o'xshatishning yuzaga chiqqanligi (go'zallikda).

Vosita – o'xshatish belgisi (kabi). Vosita ishtirok etgan o'xshatishlarda tashbih aniq ko'rinib, bilinib turadi.

So'z san'atida *-dek, -day, -cha, -simon, -vor, -oso, -vash, -iy, -oyin kabi qo'shimchalar, kabi, singari, misli, go'yo, yanglig', xuddi, o'xshab, nechukki* va boshqa so'zlar vosita bo'lib keladi.

Asos va vositaning qoʻllanish yoki qoʻllanmasligidan qatʼi nazar oʻxshamish bilan oʻxshatilmish ishtirok etgan oʻxshatish sanʼati *mutlaq tashbih* (aniq oʻxshatish) deyiladi.

Ayrim oʻrinlarda oʻxshamish ham tushib, oʻxshatilmishning oʻzigina saqlanadi. «Hilol», «sarv», «oy», «gul» soʻzlarining oʻzi oʻxshamishga ham ishora qiladi va bu *kinoya tashbih* (ishora oʻxshatish) deb ataladi [10].

Anvar Hojiahmedov tashbih sanʼatini taʼriflash jarayonida, sharq adabiyotida haqiqiy va majoziy tashbihlarga boʻlinishi ham taʼkidlab oʻtadi [11].

Xulosa qilib aytganda, lugʻatlarning muayyan xalq maʼnaviyati va milliy madaniyatida muhim oʻrin egallaydi. Lugʻatlarni doimo zamonaga hamnafas tarzda takomillashtirib borish zarur. Oʻzbek adabiyotida badiiy sanʼatlar olimlar tomonidan oʻrganilgan, biroq leksikograflar tomonidan jiddiy tahlil qilinmagan. Mavjudlari esa bugungi kun talablariga toʻliq javob bera olmaydi. Bugungi kunda fan –texnika rivojlanar ekan, inson ruhiyatini kamolotga yetkazish adabiyotning bosh vazifasi boʻlib qolaveradi. Adabiyotni oʻrganish va oʻrgatishga ehtiyoj yanada oshib boradi.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. A. Asallayev, V. Rahmonov, F. Musurmonqulov. Badiiy san'atlar: [Lug'at-ma'lumotnoma]. 2015. – T. TAFAKKUR.
2. Berdiyev X. “Devonu lug'atit- turk” dagi she'rlarning lengvopoetik tahlili. Monografiya. 2020. Samarqand.
3. Atulloh Husayniy. “Badoyi us sanoyi”. 1981. T, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
4. A. Hojiahmedov. “She'riy san'atlar va mumtoz qofiya”. 1998. Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
5. Anvar Hojiahmedov “She'riy san'atlarni bilasizmi?” 2001. Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
6. Ibn Sino. She'r san'ati. 1980. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
7. Yoqubjon Is'hoqov. “So'z san'ati so'zligi”. 2014. T, “O'zbekiston”, 2014.
8. Dilmurod Qur'onovning “Adabiyotshunoslik lug'ati” .2013. Toshkent, “Akademnashr”
9. O'zbek tilining izohli lug'ati . 5 tomlik, 3-tom. 2010. Toshkent,
10. O'zbek tilining izohli lug'ati . 5 tomlik, 4-tom. 2010. Toshkent,
11. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
12. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo 'chqorov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik .2019. Toshkent, G 'afur G 'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi.
13. Q. Yo'ldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri. 2017. T, «Sharq».

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE-3

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz